

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYA DARAJASINING
O'ZGARIB BORISH TENDENSIYALARINI STATISTIK BAHOLASH**

Abdusalomov Shermuhammad

TDIU "Statistika" kafedrasи

2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. So'ngi yillarda respublikamizdagi infilyatsiya darajasi oshib bormoqda. Albatta aytish lozimki inflatsiya ko'rsatkichining oshib borishi mamlakat uchun ijobiy holat hisoblanmasada, Korana virus pandimiysi va butun jahon geosiyosiy vaziyatlar sabab dunyoning barcha mamlakatlarida ham ushbu ko'rsatkich yuqorilab bormoqda. Infilyatsion holat bir qator ko'rsatkichlar tizimi bilan ifodalanadi. Jumladan, iste'mol narxlari indeksi (INI) va Yalpi ichki mahsulot deflyatori va boshqalar kiradi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida infilyatsiya darajasining o'zgarib borish tendensiyalarini statistik baholash borasida tahlillar olib boriladi.

Kalit so'zlar: iste'mol narxlari indeksi, deflyator, yig'ma iste'mol narxlari indeksi, tovar va xizmatlar iste'mol narxlari indeksi.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda ro'y berayotgan inflyatsion jarayonlarni o'rghanish va tahlil qilishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Yaqinda uzoq muddatli istiqboldagi aksariyat olimlar inflyatsiyani milliy pul birligining sotib olish qobiliyatining pasayishiga, makroiqtisodiy barqarorlik darajasida davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi muammolarning paydo bo'lishiga, xususan, iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida barqaror inflatsiya kutishlarining paydo bo'lishiga olib keladigan salbiy jarayon deb bilishadi. Bu esa o'z navbatida bizga inflatsiya degan atamaga va uning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini yuzaga keltirib chiqaradi.


Iste'mol narxlari indeksi (INI) – inflatsiya darajasini ifodalaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bu o'rtacha iste'molchi tomonidan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan iste'mol uchun sotib olingan tovarlar va xizmatlar majmui qiymatining umumiyligi o'zgarishini hisoblaydi, ya'ni, ma'lum davr mobaynida, tovarlar va xizmatlar iste'moli miqdorining o'zgarmas bo'lgan holatida, aholining iste'mol xarajatlari umumiyligi miqdorining o'zgarishini ifodalaydi. INIda, mamlakatning barcha hududlari bo'yicha turli tovarlar va xizmatlar narxlарining harakati o'rtacha darajaga keltiriladi. Ko'rinib turibdiki ushbu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotini ifodalaydigan ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich orqali iqtisodiyotda aholi daromadlari qanday tendensiyaga egaligi, bozor segmentlari o'rtasida talab va taklif qanday nisbatda shakllanganini, bundan tashqari mamlakat milliy valyutasining xarid qilish qobiliyati kabi muhim ko'rsatkichlarni aniqlashimiz va ularga makroiqtisodiy darajada baho

berishimiz mumkin bo‘ladi.

Inflyatsiya atamasining qisqacha tavsifi esa – bu, umumiy narxlar darajasining o‘sishi, yanada tushunarli tarzda ifodalaydigan bo‘lsak, muomaladagi pul massasining tovar aylanmalariga nisbatan ko‘payib ketishi negizida pul birligining qadrsizlanishi, bu esa o‘z navbatida mahsulotlar narxining qimmatlashishiga sabab bo‘ladi. Lekin bu izohni inflyatsiyaning mukammal hamda to‘liq talqini deb ham hisoblab bo‘lmaydi. Inflyatsiya narxlarning o‘sishida namoyon bo‘lsada, ammo bu faqatgina pulga bog‘liq hodisa emas. Boshqacha so‘z bilan aytganda, inflyatsiya – bu, nozik ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib, iqtisodiyotning turli jahbalarida sodir bo‘luvchi nomutanosiblik oqibatida vujudga keladi. Shu bilan birga inflyatsiya – bu jahonning deyarli barcha mamlakatlarda zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Respublikada INI ni hisoblash 1994 yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan.

INI shakllantirishga “Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, YHSB (Yevrostat), BMT, YIK, Butunjahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ushbu ko‘rsatkich tanlanma kuzatuv asosida mamlakatimiz hududlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan hisoblab boriladi va ochiq ma’lumotlar portali orqali keng ommaga e’lon qilib boriladi.



1-rasm. O’tgan yilning dekabriga nisbatan INI

2023 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari darajasi 8,8 % ga o'sishi kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkich 2019- yildan buyon qayd etilgan eng past ko'rsatkich bo'lmoqda. Yil davomida qisqa muddatli INI tebranishlar oralig'i dekabr oyida 101,2 % dan, iyun oyidagi eng past ko'rsatkich 99,7 % gachani tashkil etgan.

INI turli shakllarda dunyoning ko'plab davlatlarida, shu jumladan, qo'shni davlatlarda ham hisoblanadi:

Jumladan, 2022 yilda Ozorbayjon – 2,1 %, Belorussiya - 5,8 %, Gruziya - 0,4 %, Qozog'iston - 9,8 %, Qirg'iz Respublikasi - 7,3 %, Rossiya - 7,4 %, Ukraina - 5,1 %, Tojikiston - 3,8 % ga o'sish kuzatilgan.

1-jadval

Yig'ma INIning 2019-2023 yillarda o'rtacha oylik qo'shimcha o'sish sur'atlari, % da


	Yillar				
	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Yig'ma INI	1,2	0,9	0,8	1,0	0,7

2023- yilda yig'ma INI o'rtacha oylik qo'shimcha o'sish sur'ati 0,7 % ni tashkil etib, so'nggi besh yillikdagi ninimumiga tushganini kuzatishimiz mumkin. Xususan 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz bandiga pastroq bo'ldi.



2-rasm. 2023 yil davomidagi qisqa muddatli yig'ma INI qo'shimcha o'sish (pasayish) sur'atlariining o'rtacha oylik qo'shimcha o'sish sur'ati bilan taqqoslamasi.

2023 yil davomida qisqa muddatli INI tebranishlar oralig‘i –0,1 % dan 0,5 % gacha atrofida bo‘ldi. 2023- yilning sentabr va dekabr oylarida ushbu ko‘rsatkich eng yuqori darajasini namoyish etib 101,2 foizni qayt etdi. Keyingi oylarda yig‘ma INI o‘zgarishi umumiy tendensiyasi pasayish ko‘rsatkichlarini namoyon qildi. Eng past qayt etilgan ko‘rsatkichlar iyun va iyul oylariga to‘g‘ri keldi. 2023- yil mobaynida INI darajasi 2022- yilga nisbatan past bo‘lgani yil mobaynida ham saqlanib qolgan.



3-rasm. Tovarlar narxlari o‘zgarishining yillik yig‘ma INI o‘sish sur’atiga ta’siri tuzilmasi.

Tovarlarning yillik yig‘ma INI o‘sish sur’atiga ta’siri tuzilmasidagi narx o‘zgarishlaridagi egallagan ulushi 77,1 % ga etib, 2019- yildan buyon kuzatilgan eng past ko‘rsatkich bo‘lmoqda. Tovarlar narxining oshishi 2023- yil uchun yig‘ma ko‘rsatkichni umumiy 8,8 foizda o‘sishiga 6,8 foizda ta’sir qiladi. Ushbu ko‘rsatkich dekabr oyidagi yillik ko‘rsatkich uchun 2019- yildan qayd etilgan eng past ko‘rsatkichligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 apreldagi “Davlat boshqaruving ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4273-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 24-may 10-sonli qaroriga ilova “Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha” uslubiy nizom
4. Yorqin Abdullayev –“Statistika nazariyasi” . Toshkent- 2002
5. H. Shodiyev, I. Habibullayev- “Statistika” darslik- Toshkent “Iqtisod – Moliya- 2019”
6. G'oyibnazarov B.K (2012) o'zining “Statistikaning nazariy asoslari va statistik axborotning shakllanishi” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma
7. www.stat.uz– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
8. <https://www.armstat.am>
9. <https://www.geostat.ge>
10. <https://stat.gov.kz>
11. <http://www.stats.gov.cn>
12. <http://www.stats.gov.cn>
13. <http://www.stat.kg>